

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
oktyabr



**TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN
POLITEXNIKA UNIVERSITETI**

*Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya
materiallari to'plami*

**“GLOBAL RAQAMLI INTEGRATSIYALASHUV:
2030-YILGACHA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA
TEXNOLOGIK VA INDUSTRIAL SANOATNI RIVOJLANTIRISH
ORQALI MIKRO VA MAKROIQTISODIY BARQAROR
O'SISHNI TA'MINLASH DOLZARBLIGI”**

**“GLOBAL DIGITAL INTEGRATION: THE RELEVANCE OF
ENSURING MICRO AND MACROECONOMIC SUSTAINABLE
GROWTH THROUGH TECHNOLOGICAL AND INDUSTRIAL
DEVELOPMENT IN THE TRANSITION TO A GREEN
ECONOMY BY 2030”**

**«ГЛОБАЛЬНАЯ ЦИФРОВАЯ ИНТЕГРАЦИЯ:
АКТУАЛЬНОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО
МИКРО- И МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА ЧЕРЕЗ
РАЗВИТИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ И ИНДУСТРИАЛЬНОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ПЕРЕХОДЕ К ЗЕЛЁНОЙ
ЭКОНОМИКЕ К 2030 ГОДУ»**

7-MAXSUS SON



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr.
2025-yil, oktyabr.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ixamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ASSESSING RISKS IN BANKING ACTIVITIES TO ENHANCE THE EFFICIENCY OF FINANCIAL SERVICES	21
Saidov Jasurbek Latipbayevich	
MECHANISMS OF THE IMPACT OF STATE BUDGET REVENUES AND EXPENDITURES ON ECONOMIC GROWTH.....	24
Sheraliyev Nurbek Jumanazarovich	
O'QUVCHI VA TALABALARDA HUQUQIY MADANIYATINI TA'LIM JARAYONIDA YUKSALTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA TAMOIYILLARI	27
Mansurova Zilola Akromxonovna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA FINTECH INNOVATSIYALARINING RIVOJI VA ULARNING SANOAT-QURILISH SEKTORIDAGI TRANSFORMATSION TA'SIRI	30
Muzayyana Beknazarova	
TURIZM SOHASIDA RAQOBAT AFZALLIKLARINI YARATISHDA MARKETINGNING ROLI	33
Shaymanov To'liqin Mahmayusupovich	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT BUDJETI IJROSINI RAQAMLASHTIRISHNING FISKAL INTIZOM VA SHAFFOFLIKKA TA'SIRI	37
Tangrieva Farida Abdulkarimovna	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA SUN'IY INTELLEKTNI TATBIQ ETISH ORQALI BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH	41
Radjabov Bunyod Abdullilovich	
XXI-ASRDA JAHON IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA ASOSIY DRAYVERLARI	45
Jalolov Umidjon Xudoyberdi o'g'li, Yegamberdiyev Shuxrat Satimbayevich	
XALQARO RAQAMLI INTEGRATSIYA JARAYONIDA O'ZBEKISTON ISHTIROKI	48
Muyassarzoda Fayziyeva	
ФИНАНСОВЫЙ КОНТРОЛЬ КАК КЛЮЧЕВОЙ ИНСТРУМЕНТ ОБЕСПЕЧЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ИНТЕРЕСОВ И ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ УЗБЕКИСТАНА	52
Турсунбоева Нилуфар Отабековна	
ФИНАНСОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ И ИНВЕСТИЦИИ	55
Ягудин Дмитрий Рустамович	
YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA BARQAROR TURIZM RIVOJI: GLOBAL TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUVLAR.....	57
Xamdullayeva Gulhoyo Ergash qizi	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA INVESTITSION QARORLARNI OPTIMALLASHTIRISH	59
Rustambekov Djasur Askarovich	
KORXONA POTENSIALINING MOHIYATI VA TUZILMASIGA OID NAZARIY HAMDA ILMIY YONDASHUVLAR TAHLILI.....	61
Djalilov Sardor Sadillovovich	
XALQARO IQTISODIYOTNING GLOBAL DAROMAD TENGSIZLIKLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI: SAVDO SIYOSATLARI VA REDISTRIBYUTSIYA MEKANIZMLARINING TAQQOSLAYDIGAN TAHLILI	64
Kurolov Maksud Obidovich	
SURXONDARYO VILOYATIDA INVESTITSIYA VA YHM O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....	73
Zaripova Muqaddas Jumaniyozovna, Normurodov Asliddin Alijon o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT VA AVTOMATLASHTIRISHNING MEHNAT BOZORI DINAMIKASIGA TA'SIRI	77
Akmalbek Najimov Umid o'g'li, Dinara Ishmanova	
ПРАКТИКА И АНАЛИЗ КРЕДИТОВАНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЕЙ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ	81
Шамшетьева Гульраушан	



AHOLI DAROMADLARI O'SISHI VA INFLYATSIYA DARAJASI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK	83
G'ayratova Zilola G'anijon qizi, Ibragimov G'anijon G'ayratovich	
KORXONALARDA MAHSULOT SAVDOSIGA OID MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISHNING ZAMONAVIY INTELEKTUAL YONDASHUVLARI	86
Baydullayeva Dildora Tuylibayevna, Baydullayev Ruslan Tuylibayevich	
ELEKTRON TIJORATNING MILLIY IQTISODIYOTGA TA'SIRI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	90
Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li	
RAQOBATBARDOSH ELEKTROTEXNIKA MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISHDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA VA INVESTITSIYA SIYOSATINING O'RNI	93
Jalolov Abbosxon Ravshanxon	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IIY INTELLEKT ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOB VA AUDIT TIZIMLARINI AVTOMATLASHTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	97
To'laganov Ziyovuddin Kamolitdin o'g'li	
THE IMPACT OF EXTERNAL DEBT, INVESTMENT ACTIVITY, AND CAPITAL FORMATION PROCESSES ON EXPORT VOLUME AND ECONOMIC GROWTH DYNAMICS IN CENTRAL ASIAN COUNTRIES	102
Tojiqulova Sitora Sobirjon qizi	
HUMAN CAPITAL AND DIGITAL TRANSFORMATION: DRIVERS OF SUSTAINABLE ECONOMIC DEVELOPMENT	108
Hamrokulov Mirabbos Ortiqovich	
YEVROPA ITTIFOQI DAVLATLARI SOLIQ SIYOSATINI USTUVOR JIHATLARINI MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA QO'LLASH ORQALI SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	110
Hakimov Feruz Xurshid o'g'li	
KAPITAL TUZILMASINI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH KONSEPSIYASI	114
Turdibayev Abdulaziz Abduvaxidovich	
O'ZBEKISTONNING 12 YILLIK TA'LIM TIZIMIGA QAYTISH ISLOHOTI	118
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Olimov Anvarjon Atamirzayevich, Mahmudov Ziyoviddin Shamsiddinovich, Ishmuratov Baxodir Xusanovich	
MAMLAKATNING XALQARO BAHOLASH TIZIMLARIDAGI MAVQEINI YAXSHILASHDA IQTISODIY MUSTAHKAMLIKNING AHAMIYATI	123
Berdibekova Dilfuza Xoldorbekovna	
XALQARO SAVDODA MARKETING ROLI: EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	125
Qurolov Maqsud Obitovich	
BANK RISKLARINING BANK FAOLIYATIGA TA'SIRI VA ULARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	130
B.Izbosarov, N.Hakimova	
OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI MASALASINING JAHON IQTISODIYOTIDA TUTGAN O'RNI	132
Abdusamatov Barkamol Rustamjon o'g'li	
DYUZDO SPORTIDA MALAKALI SPORTCHILARNI TAYYORLASH JARAYONIDA TAKTIK TAYYORGARLIKNING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI	135
Tangriyev Abdullo Tovashovich	
SANOATDA QO'SHILGAN QIYMAT HAJMINI OSHIRISH	138
Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM BOSHQARUVI UCHUN SUN'IIY INTELLEKTNING KENGAYTIRILGAN BASHORATLI TAHLILI	142
Esanova Shohida O'tkirovna	
PROSPECTS OF USING CREDIT CARDS IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	146
Mamatova Sevara Ilhom qizi	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTNI SUG'URTALASH MEKANIZMLARINI YANADA KENGAYTIRISH YO'NALISHLARI	151
Xalilova Feruza Jamolovna	



УЯЗВИМОСТИ В ПЛАТЕЖНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	155
Садыков Азиз Миршарапович	
КРИТЕРИИ ОПРЕДЕЛЕНИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	160
Жусупова Анжим Тансыкбаевна	
SANOAT KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA OPERATSION SAMARADORLIKNI OSHIRISH: AVTOMOBILSOZLIK SEKTORI BO'YICHA ILMIY YONDASHUV	163
Allabergenov Azamat Joldasbayevich	
SUD-HUQUQ SOHASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLARNING INSON MANFAATLARIGA TA'SIRI	167
Majidov Muslimbek Maxamadjon o'g'li	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI MOLIYALASHTIRISHNING ASOSIY SHAKLLARI.....	170
Valiev Umid Gulamovich	
YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA AGRAR SEKTORNI MODERNIZATSIYA QILISH VA BARQAROR RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	173
G'afurov Zohidjon	



YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA AGRAR SEKTORNI MODERNIZATSIYA QILISH VA BARQAROR RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

G‘afurov Zohidjon

Namangan davlat texnika universiteti
mustaqil tadqiqotchi
gafurovzohidjon7@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda O‘zbekiston agrar sektorini rivojlantirish jarayonida “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining tamoyillarini joriy etishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, tadqiqotda suv va yer resurslaridan foydalanishda innovatsion yondashuvlar, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish, agrobiznes subyektlari uchun moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, agrar sektor, barqaror rivojlanish, modernizatsiya, ekologik texnologiyalar, suv resurslari, yer resurslari, agrobiznes, moliyaviy rag‘batlantirish, ekologik muvozanat, iqtisodiy samaradorlik.

Abstract. This study analyzes the theoretical and practical aspects of implementing the principles of the “green economy” concept in the development of Uzbekistan’s agricultural sector. The research also examines innovative approaches to the use of water and land resources, the introduction of renewable energy sources, and the improvement of financial incentive mechanisms for agribusiness entities.

Keywords: green economy, agricultural sector, sustainable development, modernization, environmental technologies, water resources, land resources, agribusiness, financial incentives, ecological balance, economic efficiency.

Аннотация. В данном исследовании анализируются теоретические и практические аспекты внедрения принципов концепции «зелёной экономики» в процессе развития аграрного сектора Узбекистана. Кроме того, в работе рассматриваются инновационные подходы к использованию водных и земельных ресурсов, внедрение возобновляемых источников энергии, а также совершенствование механизмов финансового стимулирования субъектов агробизнеса.

Ключевые слова: зелёная экономика, аграрный сектор, устойчивое развитие, модернизация, экологические технологии, водные ресурсы, земельные ресурсы, агробизнес, финансовое стимулирование, экологическое равновесие, экономическая эффективность.

KIRISH

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayonlarida ekologik muvozanat, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanish masalalari alohida dolzarblik kasb etmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon banki va boshqa xalqaro institutlar tomonidan ilgari surilgan “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi global miqyosda iqtisodiy faoliyatni ekologik jihatdan barqaror, ijtimoiy mas’uliyatli va uzoq muddatli rivojlanishga xizmat qiladigan yo‘nalishga yo‘naltirishni ko‘zda tutadi [1]. Mazkur konsepsiyaning asosiy g‘oyasi — iqtisodiy o‘sishni ekologik muvozanat va ijtimoiy barqarorlik bilan uyg‘unlashtirishdir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, agrar sohada “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini joriy etish qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish va moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashning eng samarali yo‘llaridan biri sifatida qaralmoqda.

Chet ellik olimlardan, masalan, Pearce, Markandya va Barbier “yashil iqtisodiyot” tushunchasini iqtisodiy o‘sish bilan bir qatorda ekologik muhofazaga qaratilgan iqtisodiy faoliyat sifatida ta‘riflab, ushbu model uzoq muddatli barqarorlikni ta‘minlashda muhim o‘rin tutishini ta’kidlagan [2]. Shuningdek, OECD ekspertlari “yashil iqtisodiyot”ni “kam uglerodli, resurslardan samarali foydalanadigan va ijtimoiy inklyuziv iqtisodiyot” sifatida talqin etadi. Shu bilan birga, agrar sektor misolida bunday tamoyillar nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifatini oshirish, ichki va tashqi bozorlar uchun raqobatbardosh mahsulotlar yetishtirish imkoniyatlarini kengaytiradi [3].

O‘zbekistonlik olimlardan X. Abdullayev, O. Jo‘rayev, M. Usmonov va boshqalar o‘z ilmiy tadqiqotlarida qishloq xo‘jaligini ekologik tamoyillar asosida rivojlantirish resurslardan samarali foydalanishga, hosildorlikni

oshirishga va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilishini alohida ta'kidlaydilar [4]. Ularning fikricha, O'zbekistonda suv va yer resurslari cheklangan sharoitda "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi bo'yicha yo'lga qo'yilgan innovatsion texnologiyalar — tomchilatib sug'orish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash kabi mexanizmlar agrar sektorni samarali boshqarishning poydevorini yaratadi [5].

Davlatimiz rahbari Sh. M. Mirziyoyev o'zining qator nutqlarida "yashil iqtisodiyot"ni mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etib, 2030-yilgacha mo'ljallangan strategik rivojlanish dasturlarida qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish, ekologik toza mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish va agrobiznesni qo'llab-quvvatlashga alohida urg'u berib kelmoqda.

Agrar sektor milliy iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, mamlakat yalpi ichki mahsulotida sezilarli ulushni tashkil etadi. Shu sababli ushbu sohada barqarorlikka erishish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikni ham ta'minlaydi. Masalan, qishloq joylarda aholi bandligining katta qismi agrar soha bilan bog'liq bo'lib, "yashil iqtisodiyot" tamoyillari asosida amalga oshiriladigan modernizatsiya ularning turmush darajasini yaxshilash, yangi ish o'rinlari yaratish va daromadlarni oshirishga xizmat qiladi.

Xorijiy tajriba ham shuni ko'rsatadiki, masalan, Germaniya, Niderlandiya, Janubiy Koreya va Xitoy kabi davlatlarda qishloq xo'jaligida yashil texnologiyalarni keng joriy etish nafaqat ekologik, balki iqtisodiy jihatdan ham yuqori samaradorlikni bergan. O'zbekiston uchun ushbu tajribalar qimmatli bo'lib, ularni milliy sharoitga moslashtirish agrar sohani zamonaviy bosqichga olib chiqadi.

Shunday qilib, ushbu tadqiqot doirasida O'zbekiston agrar sektorini "yashil iqtisodiyot" tamoyillari asosida modernizatsiya qilish zaruriyati, uning ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik afzalliklari, xorijiy va mahalliy olimlarning qarashlari hamda istiqbolli rivojlanish yo'llari chuqur tahlil etiladi. Tadqiqot orqali mamlakat agrar sohasida ekologik muvozanatni saqlagan holda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy samaradorlikka erishishning nazariy va amaliy asoslari ochib beriladi [6].

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston agrar sektorini "yashil iqtisodiyot" tamoyillari asosida modernizatsiya qilish va barqaror rivojlantirish muammolarini ilmiy jihatdan tahlil etishda bir qator tadqiqot uslublaridan foydalanildi. Avvalo, dialektik yondashuv asosida qishloq xo'jaligining iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlar o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqildi. Tizimli tahlil usuli yordamida agrar sektorni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar — resurslardan foydalanish, ishlab chiqarish samaradorligi, moliyaviy barqarorlik va ekologik muvozanat alohida elementlar sifatida emas, balki yagona tizim sifatida o'rganildi. Shuningdek, iqtisodiy-statistik usul orqali O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarda agrar sohani rivojlantirish ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil qilindi. Taqqoslash usulidan foydalanib, xalqaro tajriba bilan milliy sharoitdagi imkoniyatlar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar aniqlab berildi. Ekspert baholash usuli yordamida olimlar va amaliyotchilar qarashlari umumlashtirildi, ularning "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini joriy etish bo'yicha takliflari tahlil qilindi. Induksiya va deduksiya usullari asosida umumiy nazariy xulosalardan amaliy yechimlarga o'tildi. Natijada, ushbu tadqiqot uslublarining uyg'un qo'llanishi O'zbekiston agrar sektorida "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasini samarali joriy etishning ilmiy va amaliy asoslarini ishlab chiqishga imkon berdi [7].

O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot" tamoyillari asosida agrar sohani rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Qishloq xo'jaligi mamlakat yalpi ichki mahsulotida muhim o'rin tutadi va so'nggi yillarda modernizatsiya jarayonlari, ekologik muvozanatni saqlash hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. 2023 yilda agrar, o'rmon va baliqchilik mahsulotlari hajmi 426,3 trillion so'mni tashkil etdi, bu esa 2022-yilga nisbatan 4,1 foiz yuqori natija hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich qishloq xo'jaligining milliy iqtisodiyotdagi barqaror o'sish sur'atlarini yaqqol tasdiqlab bermoqda. 2024 yilda esa agrar ishlab chiqarish hajmi 35,1 milliard AQSh dollariga yetib, so'nggi besh yil ichida 18,5 foizlik o'sishga erishildi. Bu natija sohada amalga oshirilayotgan modernizatsiya va yashil iqtisodiyotga asoslangan loyihalar samaradorligini ko'rsatadi.

Yangi iqtisodiy ko'rsatkichlar shuni tasdiqlaydiki, O'zbekistonda agrar sektor mahsulotlari hajmi nafaqat umumiy qiymat bo'yicha, balki mahsulot turlari kesimida ham izchil ortib bormoqda. 2023-yil yakunida don mahsulotlari ishlab chiqarish 8,4 million tonnani tashkil etdi, kartoshka — 3,6 million tonna, sabzavotlar — 11,6 million tonna, mevalar va rezavorlar — 3,1 million tonna, uzum esa — 1,7 million tonnaga yetdi. Hayvonchilik sohasida ham ijobiy ko'rsatkichlar kuzatildi: 2023-yilda go'sht ishlab chiqarish (tirik vaznda) 2,83 million tonna bo'lib, 2022-yilga nisbatan 3,9 foizga o'sdi. Sut ishlab chiqarish hajmi 11,97 million tonnani tashkil etib, 2,9 foizga ko'paydi, tuxum ishlab chiqarish esa 8,49 milliard donaga yetib, 4,4 foizlik o'sishga erishdi. Bu natijalar agrar sektorda ekologik innovatsiyalar, zamonaviy texnologiyalar va resurslardan oqilona foydalanish samarali bo'layotganini anglatadi.

"Yashil iqtisodiyot" tamoyillarini amalda qo'llashda asosiy e'tibor suv va yer resurslaridan oqilona foydalanishga qaratilmoqda. O'zbekiston suv tanqisligi muammosiga duch kelayotgan davlatlardan biri sifatida tomchilatib sug'orish, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va nasos stansiyalarini modernizatsiya qilishga katta mablag' yo'naltirmoqda. 2021–2026-yillar davomida 299 ta yirik nasos stansiyasini yangilash va energiya



tejamkor texnologiyalarni joriy etishga qariyb 826 million dollar sarmoya kiritilishi rejalashtirilgan. Bu esa yiliga kamida 7 milliard kub metr suvni tejash imkonini beradi. Suv resurslarini tejash nafaqat ekologik, balki iqtisodiy jihatdan ham ahamiyatli bo'lib, ishlab chiqarish tannarxini pasaytiradi va hosildorlikni oshiradi.

Yashil iqtisodiyotning samaralaridan biri bu jon boshiga ishlab chiqarish hajmlarida ham ko'rinmoqda. 2024-yilda aholiga to'g'ri keladigan sabzavotlar hajmi 322,7 kilogrammni tashkil etib, so'nggi besh yilda 6,1 foizga oshgan. Meva va rezavorlar jon boshiga 88 kilogramm bo'lib, 7,4 foizga ko'paygan, bug'doy esa 238,2 kilogrammni tashkil etib, 7,6 foizga ortgan. Bu ko'rsatkichlar O'zbekiston aholisi uchun oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda agrar sektorning muhim rol o'ynayotganini ko'rsatadi.

Moliyaviy barqarorlik masalasida ham sezilarli natijalar kuzatilmoqda. Davlat tomonidan fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash maqsadida soliq imtiyozlari, imtiyozli kreditlar va subsidiya mexanizmlari joriy etilgan. Bu esa kichik ishlab chiqaruvchilarga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish imkonini bermiqda. Shu bilan birga, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda agrar infratuzilmani modernizatsiya qilish, qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish va logistika tizimini takomillashtirish bo'yicha loyihalar amalga oshirilmoqda. 2023-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportidan tushgan daromad 1,2 milliard dollarga yetib, mamlakatning tashqi savdo balansida sezilarli natija qayd etildi [8].

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, Germaniya, Niderlandiya, Janubiy Koreya va Xitoyda qishloq xo'jaligida yashil texnologiyalarni keng joriy etish nafaqat ekologik, balki iqtisodiy natijalarni ham sezilarli darajada yaxshilagan. O'zbekiston uchun ham bu tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish agrar sohada barqaror rivojlanishni ta'minlaydi. Shuningdek, davlat rahbari Sh. M. Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan strategik dasturlar doirasida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish va qishloq xo'jaligida zamonaviy agroklastlar tashkil etish maqsad qilingan [9].

Albatta, erishilgan natijalar bilan birga ayrim muammolar ham mavjud. Fermer xo'jaliklari va kichik ishlab chiqaruvchilarda zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish uchun moliyaviy resurslarning yetarli emasligi, yuqori foiz stavkalari, kafolat tizimlarining sustligi muammolardan hisoblanadi. Ekologik jihatdan esa tuproq eroziyasi, sho'rlanish va iqlim o'zgarishi ta'sirida qurg'oqchilik xavfi agrar sektor barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shunday bo'lsa-da, so'nggi yillardagi o'sish ko'rsatkichlari va davlatning strategik dasturlari ushbu muammolarni bosqichma-bosqich hal qilish imkonini bermiqda.

XULOSA

O'zbekiston agrar sektorini "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi asosida modernizatsiya qilish va barqaror rivojlantirish yo'llarini o'rganish jarayonida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, mamlakatda qishloq xo'jaligi nafaqat iqtisodiy o'sishning, balki ekologik muvozanatning ham muhim kafolatchisi hisoblanadi. O'tgan yillarda amalga oshirilgan islohotlar, xususan 2017–2023-yillarda qabul qilingan Prezident qarorlari va strategik dasturlar agrar sohada tub tarkibiy o'zgarishlarga zamin yaratdi. Statistik ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining hajmi 2017-yildagi 201 trln so'mdan 2023-yilda 360 trln so'mga yetgani sektorning iqtisodiy ahamiyatini oshirganini anglatadi. Shu bilan birga, suv resurslaridan oqilona foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish va organik mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish kabi tashabbuslar yashil iqtisodiyot tamoyillariga mos ravishda rivojlanmoqda.

Tadqiqot usullaridan foydalanish natijasida aniqlanishicha, O'zbekiston agrar sektorini modernizatsiya qilishda xorijiy tajribalarni qo'llash bilan bir qatorda, milliy sharoitga mos yondashuvlarni ishlab chiqish muhimdir. Masalan, suv tejovchi texnologiyalar, agroklastlar tizimi va ekotizim xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari mavjud. Natijalar shuni ko'rsatdiki, agrar sohada barqarorlikka erishish uchun davlat siyosati, biznes manfaatlari va aholining ekologik ongini uyg'unlashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Elyorjon o'g'li, X. D. (2025). Yashil iqtisodiyot: O'zbekistonning barqaror rivojlanish yo'li. *World Scientific Research Journal*, 38(1), 302–307.
2. Ban, C., & Hasselbalch, J. (2025). Green economic planning for rapid decarbonisation. *New Political Economy*, 30(2), 287–299.
3. Maulana, D. (2025). Integrating Maqashid al-Shariah into sustainable investment instruments: A conceptual framework for the green economy era. *Journal Islamic Economic Minangkabau*, 3(1), 12–25.
4. Niyozova, I. N., & Nozimbek, N. (2024). Yashil iqtisodiyot barqaror iqtisodiy rivojlanishning asosi. *Models and Methods for Increasing the Efficiency of Innovative Research*, 3(34), 509–515.
5. Jumayeva, Z. (2025). The formation of the green economy concept, stages of development and its relevance. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(3), 262–266.
6. Baxtiyor o'g'li, I. B. (2023). Forms of ownership and entrepreneurship in agriculture in Uzbekistan. *Miasto Przyszłości*, 42, 284–291.



7. Ibrahimovich, R. B., Ugli, I. B. B., & Ugli, I. B. B. (2023). Innovative reforms in agriculture development. *The American Journal of Management and Economics Innovations*, 5(03), 9–13.
8. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (stat.uz).
9. Rahimov, B. I., Yoldashev, B. S., & Ibrahimov, B. B. (2023). The need to organize a cluster in the agricultural network. *International Journal of Management and Economics Fundamental*, 3(02), 9–19.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100